

**URUHLAR VA MOJAROLAR JURNALIST KO'ZI BILAN:
ETIKA VA XAVFSIZLIK**

Hasanova Zarina Sodiqovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
qoshidagi Akademik litsey talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada urush va mojarolarni yoritish jarayonida jurnalistlarning kasbiy etikasi hamda shaxsiy xavfsizlik muammolari tahlil etiladi. Zamonaviy axborot vositalarining tezkorlik va xolislik talablari sharoitida jurnalistlar ko'pincha xavfli hududlarda ishlashga majbur bo'lishadi. Bu esa nafaqat ularning hayotini xavf ostiga qo'yadi, balki axborotning ishonchliligiga ta'sir etuvchi murakkab etik holatlarni yuzaga keltiradi. Maqolada xalqaro tajriba, jurnalistika kodekslari, hamda real voqealar asosida urush va mojaro zonalarida ishlovchi jurnalistlarning professional faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xolislik, neytrallik, senzura, axborotni tekshirish, inson huquqlari va jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash borasidagi dolzarb muammolar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Urush jurnalistikasi, etik tamoyillar, xavfsizlik, senzura, xolislik, mojaro zonalar, harbiy axborot, inson huquqlari.*

Zamonaviy dunyoda urush va mojarolar har doim ham faqat harbiy harakatlar bilan cheklanib qolmaydi. Ular bilan bir qatorda axborot urushi, ommaviy ongni boshqarish va targ'ibot vositalari orqali olib boriladigan gibril kurash shakllari ham mavjud. Bu holatda jurnalistikaning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mojaro va urush zonalarida ishlayotgan jurnalistlar faqat axborot yetkazuvchi emas, balki ko'plab ijtimoiy, siyosiy va axloqiy mas'uliyatni zimmasiga olgan mutaxassislar sifatida faoliyat yuritadi. Ularning vazifasi — hodisalami xolis yoritish, haqiqatni aniqlash va ommaga yetkazishdir. Biroq bu jarayon ko'p hollarda xavfli, murakkab va ba'zida etika bilan xavfsizlik o'rtasida tanlov qilish zaruratiga olib keladi.

Urush jurnalistikasi — jurnalistikaning eng murakkab va og'ir yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jurnalistlar mojaroli hududlarga kirib, hayotlariga tahdid soluvchi sharoitlarda ishlashadi, mahalliy aholi vakillari, harbiylar, begunoh qurbonlar va siyosiy kuchlar bilan muloqotga kirishishadi. Bu esa ularning professional yondashuviga, axloqiy qarorlariga, hamda shaxsiy xavfsizlik choralari to'g'ri baholashga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, urush haqida xabar berishda jurnalistning pozitsiyasi, tarfakashlikdan holi bo'lishi, manipulatsiya va targ'ibotdan yiroq turishi, insoniylik me'yorlariga amal qilishi katta ahamiyatga ega.

Jurnalistikaning asosiy prinsiplari — haqiqatga sodiqlik, xolislik, muvozanat, aniqlik — urush sharoitida sinovdan o'tadi. Ayniqsa, sensatsiyaga intilish, auditoriya e'tiborini tortish uchun hodisalarni drammatizatsiya qilish ehtiyoji, ba'zida etik me'yorlarga zid holatlarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, jurnalist axborotni qay darajada senzura qilishi yoki qilmasligi, harbiy sirlarni ochiqalmaslik, begunoh insonlar hayotini xavf ostiga qo'yimaslik kabi dilemmalar bilan yuzma-yuz keladi. Xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO, "Chegara bilmas muxbirlar", Jeneva konvensiyasi asosida ishlab chiqilgan qoidalar bu boradagi asosiy huquqiy va etik mezonlarni belgilaydi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, urush jurnalistikasida xavfsizlik birlamchi masalalardan biridir. Professional treninglar, xavfli hududlarda harakatlanish bo'yicha qoidalar, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, aloqa vositalarini to'g'ri tanlash kabi jihatlar jurnalist hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga qaramay, har yili yuzlab jurnalistlar urush zonalarida halok bo'ladi yoki bedarak yo'qoladi. Bu esa jurnalist kasbining nafaqat ijtimoiy ahamiyatini, balki uning naqadar fidokorlik talab qiluvchi soha ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, mojaroli hududlarda ishlovchi jurnalistlarning axborot manbalarini tanlash masalasi ham juda muhim. Turli tomonlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi manbalardan olingan axborotni tahlil qilish, ularni solishtirish va neytral pozitsiyani saqlash — bu jurnalistning malaka va tajribasiga bog'liq. Ayniqsa, mojaroni yoritishda til va uslub tanlovi, vizual materiallarning ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi, begunoh insonlar sha'niga daxl qilmaslik kabi axloqiy jihatlar doimo e'tiborda bo'lishi zarur.

Urush va mojarolarni yoritish jurnalistikasi ko'plab murakkabliklarni o'z ichiga oladi. Bunda jurnalist faqatgina voqeani xolis yetkazuvchi emas, balki axloqiy tanlovlar, xavfsizlik choralarini hisobga oluvchi va o'z kasbining xalqaro mezonlariga sodiq qoluvchi ijtimoiy arbob sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy masalalardan biri — bu jurnalistikaning etik tamoyillarini urush sharoitida qanday qo'llashdir. Chunki har bir urush voqeasi, har bir guvohlik, har bir tasvir ortida insoniy taqdir, og'riq va ko'zga ko'rinmas ruhiy iztirob yotadi. Jurnalist esa bu iztirobni ommaga yetkazishda nafaqat haqiqatga sodiq qolishi, balki inson sha'ni va qadriyatlarini hurmat qilishi kerak.

Etikaning eng asosiy prinsiplaridan biri — bu xolislikdir. Mojaroli hududlarda bu prinsipni saqlash juda qiyin. Har bir tarafning o'z pozitsiyasi, axborotni o'z manfaatiga yo'naltirishga bo'lgan intilishi mavjud. Bu holatda jurnalist o'zining mutlaqo neytral nuqtai nazarini saqlab qolishi, barcha tomonlarning fikrini yoritib berishi, manipulyatsiyaga uchmasligi zarur. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, jurnalist ko'pincha aynan axborot urushi qurboniga aylanadi. Ayrim hollarda esa ommaviy axborot vositalari o'z jurnalistlariga

vaziyatni bir tomonlama yoritishni buyuradi. Bu esa jurnalistik etikaga ziddir va urushlar haqida yolg'on tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi.

Urush jurnalistikasida ikkinchi muhim masala – bu senzura va axborot erkinligi o'rtasidagi muvozanatdir. Ko'plab davlatlar urush sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida jurnalistlar faoliyatini cheklaydi, senzura o'rnatadi yoki faqat rasmiy ma'lumotlar asosida xabar tarqatishni talab qiladi. Bunday holatda jurnalistning vazifasi – haqiqatni topish va uni xavfsiz shaklda yetkazishdir. Biroq ayrim hollarda bu urinish jurnalistning hibsga olinishi, tahdid qilinishi yoki hayotini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Shu bois, urush va mojarolarni yoritishda xalqaro jurnalistlar tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan xavfsizlik qoidalari va etik kodekslarga amal qilish nihoyatda muhimdir.

Urush zonalarida ishlovchi jurnalistlar ko'pincha shaxsiy xavfsizlik va axborot olish ehtiyoji o'rtasida murosaga kelishga majbur bo'ladilar. Bu holat ularni hayotiy xavf ostiga qo'yadi. Xalqaro amaliyotda maxsus himoya vositalari, xavfli hududlarda harakatlanish bo'yicha treninglar, xavfsiz aloqa tizimlari, evakuatsiya rejalari mavjud bo'lsa-da, ko'plab mustaqil jurnalistlar yoki kichik nashrlar bunday imkoniyatlardan foydalana olmaydilar. Natijada ular ko'proq xavf ostida qoladi. Bundan tashqari, jurnalistlar o'zlarini himoya qilishdan tashqari, axborot manbalari — mahalliy aholi, guvohlar, hatto harbiylar xavfsizligini ham o'ylashi kerak. Chunki noto'g'ri yondashuv ularning hayotiga tahdid tug'dirishi mumkin.

Urush va mojarolar jurnalistikasi kontekstida yana bir muhim tamoyil — bu inson sha'ni va huquqlariga hurmatdir. Jurnalistlar ba'zida halok bo'lgan yoki jarohatlangan insonlarning fotosuratlarini va video tasvirlarini tarqatadi. Bu esa inson qadr-qimmatiga zid bo'lishi mumkin. Shu bois, zamonaviy jurnalistika tamoyillarida halok bo'lganlar jasadini ko'rsatish, begunoh insonlarning yuzlarini ochiq e'lon qilish, bolalar va ayollarni zo'ravonlik qurboni sifatida aks ettirishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligi ta'kidlanadi. Har bir tasvir axborot vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongga ta'sir qiluvchi kuchli vosita sifatida qaraladi.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot sababli urush va mojarolar onlayn maydonlarga ko'chdi. Bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, jonli efirlar orqali mojarolar haqidagi xabarlar soniyada global auditoriyaga yetib boradi. Bu holatda jurnalistlardan yanada katta mas'uliyat, fakti tekshirish, vizual kontentni ehtiyotkorlik bilan tanlash va ishonchli manbalarga tayanish talab etiladi. Yolg'on xabarlar, dezinformatsiya va propaganda urushlari sharoitida bu talablar yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Jurnalistikaning xalqaro etik kodekslari – xususan, “Global jurnalistika etikasi deklaratsiyasi”, “Chegara bilmas muxbirlar” tamoyillari, shuningdek, UNESCO tomonidan qabul qilingan me'yorlar jurnalistlar uchun asosiy yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi. Ular

jurnalistlardan axborot to'plashda xolislik, shaffoflik, ehtiyotkorlik va insoniylik prinsiplariga amal qilishni talab qiladi. Urush holatida bu me'yorlarga amal qilish ikki karra muhim, chunki bu faqat jurnalist obro'sini emas, balki axborot iste'molchilari — keng jamoatchilikning haqiqatga bo'lgan ishonchini ta'minlaydi.

Shuningdek, jurnalist urushni yoritishda tinchlikparvarlik yondashuvini ham yodda tutishi kerak. Voqealarni haddan ortiq drammatizatsiya qilish, ayblov va nafratga undovchi tilni qo'llash, murossasizlik kayfiyatini targ'ib qilish — bular mojaroni chuqurlashtiruvchi omillar bo'lishi mumkin. Aksincha, professional jurnalist o'z xabarlarida tinchlikka undovchi, mojaroni anglatibgina qolmay, uni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga harakat qiluvchi pozitsiyada bo'lishi lozim.

Urush va mojarolar sharoitida faoliyat yurituvchi jurnalistlar doimiy ravishda etik, xavfsizlik va professional me'yorlar o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlashga intiladilar. Ularning faoliyati shunchaki axborot yetkazish emas, balki jamiyat ongini shakllantirish, tinchlikni ta'minlash va haqiqatni ommaga etkazishdek ulug' vazifani o'z ichiga oladi. Bu esa jurnalist kasbining nafaqat murakkab, balki yuksak ijtimoiy mas'uliyat talab qiluvchi faoliyat ekanligini ko'rsatadi.

Urush va mojarolar sharoitida jurnalistikaning o'mi va mas'uliyati yanada oshadi. Ushbu maqolada ko'rib chiqilganidek, urush jurnalistikasi nafaqat voqealarni xolis yoritish, balki inson huquqlari, axloqiy me'yorlar, axborot xavfsizligi va shaxsiy himoya masalalari bilan chambarchas bog'liq. Mojaroli hududlarda ishlovchi jurnalistlar har kuni professional tanlovlar, axloqiy dilemmalar va jismoniy tahdidlar ostida faoliyat yuritadilar. Bu holat jurnalistning shunchaki axborot yetkazuvchi emas, balki ijtimoiy ong va xalqaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi kuchli axloqiy pozitsiyaga ega bo'lgan shaxs ekanligini yana bir bor ko'rsatadi.

Etika va xavfsizlik masalalari bu sohada ajralmas tushunchalardir. Xolislik, inson sha'niga hurmat, begunoh insonlarning sha'nini himoya qilish, real voqealarni hissiy, g'arazsiz ifoda etish — jurnalist kasbining poydevoridir. Shu bilan birga, hayotiy xavf ostida axborot yig'ish va uni tarqatish jarayonida jurnalistning o'z xavfsizligini ta'minlash, xalqaro me'yorlarga tayanishi, global jurnalistik hamjamiyat bilan hamkorlikda ishlashi zarur. Bu yo'lda turli xalqaro tashkilotlar, etik kodekslar, professional treninglar va zamonaviy texnologiyalar jurnalistlar uchun muhim vosita hisoblanadi.

Axborot asrida jurnalistlar tomonidan berilgan har bir xabar millionlab odamlarga ta'sir ko'rsatadi. Urush va mojaro haqida beriladigan xabarlar esa bu ta'sirni yanada chuqurlashtiradi, ijtimoiy ongni shakllantiradi, qarorlar qabul qilishga turtki bo'ladi. Shu sababli, jurnalistning etik mas'uliyati va xavfsizlik choralari rioya etishi nafaqat o'z faoliyatining muvaffaqiyati, balki global tinchlik va barqarorlikning kafolatidir. Ushbu

maqola orqali shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy jurnalist urush va mojarolarni yoritishda haqiqatni yetkazuvchi, insonparvarlik tamoyillarini ilgari suruvchi va tinchlikka undovchi kuch sifatida harakat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kovach, B., & Rosenstiel, T. (2014). *The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect*. New York: Three Rivers Press.
2. UNESCO. (2015). *Journalism, Fake News & Disinformation: Handbook for Journalism Education and Training*. Paris: UNESCO Publishing.
3. Reporters Without Borders (RSF). (2023). *Safety Guide for Journalists: A Handbook for Reporters in High-Risk Environments*.
4. Ward, S. J. A. (2005). *The Invention of Journalism Ethics: The Path to Objectivity and Beyond*. Montreal: McGill-Queen's University Press.
5. Zelizer, B., & Allan, S. (Eds.). (2011). *Journalism After September 11*. New York: Routledge.
6. Hanitzsch, T., & Vos, T. P. (2018). *Journalism Beyond Democracy: A New Look into Journalistic Roles in Political and Everyday Life*. Journalism: Theory, Practice & Criticism.
7. International Federation of Journalists (IFJ). (2022). *Global Charter of Ethics for Journalists*. Brussels: IFJ.
8. Lynch, J., & McGoldrick, A. (2005). *Peace Journalism*. Stroud: Hawthorn Press.
9. Allan, S. (2010). *News Culture*. Third Edition. McGraw-Hill Education.
10. Gillmor, D. (2010). *Mediactive*. Lulu Press.